



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 31 - avgust

VI-39-33-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

Bulung'ur tumanida yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar muammolarining hal etilishiga ko'maklashish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

HISOBOT

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 8-oktabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida (79-sonli bayon) jamiyatda yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi XXXIX sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Yoshlar ishlari agentligi Bulung'ur tumani bo'limi boshlig'i K.G'apparovning Bulung'ur tumanida yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar muammolarining hal etilishiga ko'maklashish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan va amaliy yordam ko'rsatilgan hamda "Yoshlar daftari"dan chiqariladigan 5 802 nafar yoshlar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumandagi sektor rahbarlariga:

- Bulung'ur tumanida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar muammolarining hal etilishini sifatli va samarali sektorbay bajarilishini ta'minlash va doimiy

nazorat o‘rnatish;

- Yoshlar bilan ishlashda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar muammolarining hal etilishida sustkashlikka yo‘l qo‘yayotgan tashkilotlarning mas’uliyatini oshirish yuzasidan ta’sirchan choralarni ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev), aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (B.Bosimov), tijoart banklari (M.Sattorov, I.Abdukarimov, Z.Shakarov)larga “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ishlash istagini bildirgan, kasb-hunarga o‘qish istagini bildirgan va tadbirkorlik qilish istagini bildirgan yoshlar bilan tizimli ishlash maqsadida ularning bandligini ta’minlash, kasb-hunarga o‘qitish va biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozli kreditlar ajratish choralarni ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari vasiylik kengashi raisi (D.Xabibullayev) va vasiylik kengashi a’zolariga:

“Yoshlar jamg‘armasi”ni shakllantirish, undan unumli foydalanish va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga to‘g‘ri ajratilishini doimiy monitoring qilib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Buriboyev), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (K.G‘apparov)larga

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar muammolarining hal etilishini monitoring qilib borish va har oyda tuman kengashi sessiyasiga hisobot berib borish;

yoshlar bilan ishlashda sustkashlikka yo‘l qo‘yayotgan tashkilotlarning mas’uliyatini oshirish yuzasidan ta’sirchan choralarni ko‘rish yuzasidan takliflar va bildirishnomalar berib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Tuman Madaniyat bo‘limi (A.Isoqov), O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuman Kengashi (I.Najmiddinov) va tumandagi madaniyat markazlari bilan birgalikda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli va doimiy tashkil qilish vazifasi yuklatilsin.

8. Tuman Turizm va sport bo‘limi (S.Qo‘ldoshev), tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Xazratkulov), O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuman Kengashi (I.Najmiddinov)lar “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni sportga keng qamrab olish, sport musobaqalarini tizimli va doimiy tashkil qilish va sport

to‘g‘araklarini kengaytirish choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish va ijrosini taminlash xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy m‘adaniy rivojlanish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi” (Sh.Axmedov), tuman hokimining o‘rinbosari (A.Buriboyev) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси



В.Вахрамов

Халқ депутатлари Булунғур туман
кенгашининг
2021 йил 31 августдаги
VI-39-33-7-93-К/21-сон қарорига
1-илова

Булунғур туманида "Yoshlar dafnari" chiqarilgan yoshlar to'g'risida
MA'LUMOT

Sektor	Ismi chiqarilgan yoshlar	Tumanda jami									
		Ro'yxat o'rinlariga joylashtirilgan	Uy-ku'cha bosh boshiga	Haydovchilik kurslariga o'qish boshiga	Qishloq xo'jaligi mahsulotini sotib olish boshiga	SCHEP hudud boshiga	OTM ta'lim boshiga	Madaniyat boshiga	Yoshlar markazi boshiga	Qo'shimcha boshiga	Qo'shimcha boshiga
1-Sektor	1 517	282	21	27	964	11	8	3	67	79	64
2-Sektor	1 771	419	7	13	1 191	6	1	0	68	75	0
3-Sektor	1 716	135	15	13	1 385	5	2	13	88	73	67
3-Sektor	798	253	8	18	215	10	4	4	66	100	40

B.Baxramov
S.Saidov
B.Jo'raqulov
Sh.Kahramonov
K.G'orrayev